

О‘ЗBEK VA ISPAN TILLARIGA O‘ZLASHGAN ARABIZMLARNING LINGVISTIK-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Dushayeva Umida Yusufvna

O‘zbekiston davlat jajon tllari universiteti, Ispan tili

amaliy fanlar kafedrası

f.f.f.d (PhD) dotsent.vb

Dushanova Moxinur Shuxrat qizi

Ispan tili amaliy fanlar kafedrası FISP 2304-guruh talabasi

Annotatsiya: Dunyo tillari lug‘at boyligida boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar salmoqli o‘rin egallaydi. O‘rta asrlarda o‘zbek va ispan tillariga arabcha so‘zlarning bosim bilan kirib kelishi arab dunyosi, jumladan, arab tilining bevosita ta’siri kuchayganligidan dalolat beradi. Muayyan tushunchani anglatuvchi leksema mavjud bo‘lmaganda yoki uni qo‘llashdagi noqulayliklar sababli so‘zlovchi o‘zlashma so‘z arabizmlarni nutqda qo‘llay boshlagan. Arabizmlarning ba’zilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan bo‘lsa, ba’zilari uchinchi yo to‘rtinchi vositachi til orqali ham kirib kelgan. Bu davrda so‘zlar fonetik va orfografik o‘zgarishlarga uchragan, ularda ma’no torayish yoki kengayish hodisasi ro‘y bergan, ko‘pincha o‘zlashgan so‘zlar har bir tilda mavjud ichki qonuniyatlarga bo‘ysungan.

Kalit so‘zlar: so‘z, etimologiya, izohli lug‘at, ispan tili, o‘zbek tili, alkogol

Abstract. In the vocabulary of world languages, words that have entered from other languages occupy a significant place. The penetration of Arabic words into the Uzbek and Spanish languages in the Middle Ages indicates the direct influence of the Arab world, including the Arabic language. In the absence of a lexeme denoting a certain concept or due to inconvenience in using it, speakers began to use borrowed words - Arabisms in speech. Some of the Arabisms were directly adopted, while others

entered through a third or fourth intermediary language. During this period, words underwent phonetic and orthographic changes, their meaning was narrowed or expanded, and often the adopted words were subject to the internal laws of each language.

Key words: vocabulary, etymology, annotated dictionary, spanish, uzbek language, alcohol

Kirish: Arab tili jahon tillari orasida o'zining qadimiyligi, boy leksik-fonetik tizimi va madaniy-falsafiy merosi bilan ajralib turadi. Islom dini bilan bog'liq holda arab tili turli xalqlar hayotiga chuqur kirib borgan va ularning tiliga, tafakkuriga, madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, o'zbek va ispan tillari bu tilning boy leksik qatlamidan bevosita yoki bilvosita ta'sirlangan tillar sirasiga kiradi. Bu ikki til har xil hududda, turli tarixiy sharoitda rivojlangan bo'lsa-da, arab tili ularga o'zining diniy, ilmiy va madaniy so'z boyligini olib kirgan. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar – arabizmlar – nafaqat lug'aviy birlik sifatida, balki butun bir madaniy qatlamni aks ettiruvchi elementlar sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali xalqlarning tarixiy, diniy, ilmiy va madaniy aloqalari, tafakkur tarzi, dunyoqarashi namoyon bo'ladi. O'zbek tilida arabizmlar asosan islom dini, axloqiy-falsafiy tushunchalar va ilm-fan sohasi bilan bog'liq bo'lsa, ispan tilida ular Andalusiya davrida shakllangan iqtisodiy, ilmiy va kundalik hayotga oid sohalarga oid bo'lgan. Ushbu maqola arab tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zbek va ispan tillaridagi lingvistik-etimologik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning morfologik va semantik o'zgarishlarini ochib berish, hamda ularning zamonaviy til va tafakkurdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, maqolada mashhur allomalarning til va tafakkurga doir fikrlari asosida arabizmlarning madaniy-ma'naviy ahamiyati ham yoritiladi. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ispan tillarida faol ishlatiladigan arabcha kelib chiqishga ega leksik birliklar tanlab olindi. Maqsad – bu so'zlarning kelib chiqishi, tilga kirib kelish sabablarini aniqlashdan iborat.

O'zbek xalqi uchun arab tili diniy manbalar (Qur'on, Hadis) va ilmiy asarlar (falsafa, matematika, tibbiyot) orqali tilga singgan bo'lsa, ispan xalqi uchun bu til VIII-XV asrlarda Andalusiyada arablar hukmronligi orqali keng yoyilgan. Bu davrda ispan tiliga taxminan 4000 dan ortiq arabcha so'zlar lirib kelgan. Mashhur sharqshunos A.A. Shcherbak arab tilining o'zbek tiliga bo'lgan ta'sirini "Bu til nafaqat lug'aviy boylik, balki tafakkur shakliga ham ta'sir qilgan" deya ta'riflaydi. Xuddi shunday, ispan tilshunosi Federico Corriente arab tilidan kirib kelgan so'zlarni "Ispancha leksikaning ajralmas qismi" deb ataydi. O'zbek va ispan tillariga kirgan arabizmlar leksik-semantik jihatdan diniy, ilmiy, axloqiy-falsafiy va kundalik hayot sohalariga oid. Ko'plab o'zbek tilidagi arabizmlar diniy-axloqiy va ilmiy-ma'naviy sohalarida faol ishlatiladi. Ispancha arabizmlar esa kundalik hayotda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, matematika va texnik terminologiyada ko'proq uchraydi. Har ikki tilda ham arabcha so'zlar semantik moslashuv va fonetik moslashuv orqali tilga kirgan. Masalan, o'zbek tilida "sabr", "taqvo", "gunoh", "niyat" kabi so'zlar keng ishlatiladi. Ispan tilida esa "aceite" (zaytun moyi), "algodón" (paxta), "algebra" (jabr) kabi amaliy so'zlar ko'p uchraydi. Bu holat har bir xalqning arab tilidan foydalangan ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojini ko'rsatadi. O'zbek xalqi islomni qabul qilganidan keyin arab tilini asosan diniy maqsadlarda o'rgangan bo'lsa, ispan xalqi uni hukmronlik kuchi sifatida qabul qilgan va undan kundalik ehtiyojlarda foydalangan. Arabcha so'zlar har ikki tilga kirar ekan, ular fonetik va morfologik jihatdan moslashtirilgan. O'zbek tilida ko'plab so'zlar o'z ildizini saqlab qolgan bo'lsa-da, talaffuz va morfemik tuzilish jihatidan o'zbek tilining fonotaktikasiga moslashgan. Masalan, arabcha "şabr" o'zbekchada "sabr" shaklida, "ilm" esa o'zgarmagan holda qabul qilingan.

Ispan tilida esa fonetik moslashuv yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, arab tilidagi **"al-kuḥūl"** so'zi ispan tilida **"alcohol"** shaklida saqlanib qolgan, lekin talaffuz ispancha fonetika asosida o'zgaradi. **"Alkogol"** so'zi o'zbek tili izohli lug'ati (2006-yil, A harfi)da (12, 71) arabcha **الكحل al-kuḥl** — mayin kukun, **الكحول al-kuḥūl**

— spirt ma'nolarini bildirishi bilan birgalikda aroq, vino va spirtli ichimliklar ma'nolarini ham beradi"deb yozilgan. Biz ushbu arabcha so'zni o'zbek tiliga rus tiliga g'arb tillari (asosan, ispan tili) orqali kirib kelgan **алкоголь** so'zi deb hisoblaymiz. Asos sifatida arabcha **al-kuḥūl** so'zidagi /ḥ/ harfi o'zbekchada /g/ harfi tarzida talaffuz qilinishi rus tili qoidalariga to'g'ri keladi. Ko'pgina hollarda arabchadagi "al-" artikli ispancha variantlarda saqlanadi, masalan: **albahaca (rayhon), almohada (yostiq), alcalde (shahar hokimi)** kabi.

Ispancha **alcohol (Alkogol)** so'zi arabcha **'akhal** — qora ma'nosini beruvchi o'zakdan kelib chiqqan **الكل al-kuḥl** (ma'nosi: surma, galinit (qo'rg'oshin rudasi), ko'zga suriladigan malham, ko'z ostiga suriladigan kosmetik mayin kukun) so'zidan o'zlashtirilgan. Mihai Enachescuning fikriga ko'ra (9, 108), ispancha **alcohol** so'zi dastlab, Al-Andalus arab tilisi (árabe hispánico)dagi **kuḥūl**, bu esa o'z o'rnida arabcha kuḥl so'zidagi surma, galinit (qo'rg'oshin rudasi) ma'nolari bilan ispan tiliga kirib kelgan va 1278-yil Ispaniyaning Qirollik Akademiyasi lug'atlarida aynan yuqoridagi ma'nolarda, shuningdek, *ayollar ko'zlarini qoraytirish uchun ko'z atrofiga suriladigan mayin surma kukuni* kabi ma'nosida ham yozilgan. Ispancha boshqa tarixiy lug'atlarda ham **alcohol** so'zining *ko'zga suriladigan malham, ko'z ostiga suriladigan kosmetika* kabi ma'nolari keltirilgan, hamda XIII asrda ispan tili orqali o'sha davrlarda butun Yevropada yozuv tili hisoblangan lotin tiliga ham kiritilgan. Lotin tili orqali ushbu so'z *surma, galinit (qo'rg'oshin rudasi), ko'zgasuriladigan malham, ko'z ostiga suriladigan kosmetika, qora mayin kukun* ma'nolarida deyarli barcha Yevropa tillariga tarqalgan. XVI asrda alkimyogar Paracelsusning **al-kuḥl** hosil qilishdagi kimyoviy jarayonlar orqali vino spirti ishlab chiqaradi va mazkur kimyoviy elementni hosil jarayoni al-kuḥlniki bilan bir xil bo'lganligi sababli aynan alcohol deb nomlana boshlaydi. Natijada **alcohol** yangi *moddaning silliqlash, sublimatsiya yoki distillash orqali olingan mohiyati (asosi) va vino spirti* ma'nolariga ega bo'ladi

Shuningdek, ispan tilida arab tilidan kirgan ko‘plab ilmiy so‘zlar jahon miqyosida tan olingan: “álgebra”, “algoritmo”, “cero” (sifr) kabi. Bu so‘zlar ispan tilidan boshqa tillarga ham tarqalgan, jumladan ingliz va fransuz tillariga.

Arabcha so‘zlar har ikki tilga o‘zgacha ma’no yuklanib o‘zlashgan. O‘zbek tilida ko‘plab arabcha so‘zlar ruhiy-ma’naviy tushunchalarni bildiradi: “**taqvo**” – *Allohdan qo‘rqish va itoat qilish*, “**sabr**” – *sinovlarga chidam bilan bardosh berish*, “**niyat**” – *maqsad qilish, ko‘ngildan o‘tkazish*.

Ispan tilida esa arabcha kelib chiqishga ega so‘zlar ko‘pincha diniy emas, balki madaniy yoki amaliy ma’noga ega. Misol uchun, “**¡Ojalá!**” iborasi arab tilidagi “**إن شاء الله**” (*in shaa Alloh*) iborasidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, bugungi ispan tilida bu ibora “*ilohim, Xudo xohlasa*” ma’nosida, ko‘proq istak, niyat bildirish uchun ishlatiladi va diniy kontekstdan ayrilgan.

Bugungi kunda o‘zbek tilida arabcha so‘zlarning aksariyati diniy va falsafiy matnlarda, ommaviy axborot vositalarida, darsliklarda, hatto kundalik so‘zlashuvda faol ishlatilmoqda. “Adolat”, “taqdir”, “rahmat”, “duo”, “gunoh”, “savob” kabi so‘zlar odamlar tafakkurining ajralmas qismiga aylangan. Ispan tilida esa arabizmlar ko‘proq iqtisodiy va texnik sohalarda qo‘llaniladi. “**Almohada**” – *yostiq*, “**acequia**” – *sug‘orish ariqlari*, “**almazara**” – *zaytun yog‘i zavodi* kabi so‘zlar orqali arablarning texnik yutuqlari ispan tilida o‘z aksini topgan.

Federico Corriente ispan tilidagi arabizmlar haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan mashhur sharqshunoslardan biridir. Uning fikricha, ispan tilida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar faqat oddiy leksik birliklar emas, balki Ispaniyaning o‘ziga xos tarixiy va madaniy qatlamining ajralmas qismidir. Uning ta’kidlashicha, Andalusiya davrida (VIII–XV asrlar) arab xalqi nafaqat Ispaniyaning hududiy va siyosiy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan, balki uning madaniy, ilmiy, iqtisodiy va tilsozlik jihatidan ham chuqur iz qoldirgan. Shu sababli, ispan tilidagi arabcha so‘zlar – masalan, “álgebra”

(*jabr*), “*alcalde*” (*shahar hokimi*), “*aceite*” (*zaytun moyi*) – bu tilda mavjud bo‘lgan yirik madaniy qatlam va tarixiy xotiraning guvohi hisoblanadi. Bu arabizmlar ispan tilining tarixiy rivojlanishida mustahkam joy olgan va ular orqali Andalusiya davrining ilm-fan, san’at va kundalik hayotidagi arab madaniyati aks etadi. Shuningdek, Corriente bu so‘zlarning zamonaviy ispan tilida ishlatilishi ushbu tarixiy madaniyatning hali ham yashayotgan va til orqali uzatilayotganligini ko‘rsatadi. Bu jihat tilning tarixiy madaniy ildizlarini o‘rganishda, tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki tarixiy va madaniy xotira sifatida ham qadrlash kerakligini ta’kidlaydi.

Taniqli sharqshunos va turkolog A.A.Shcherbak arab tilidan o‘zbek tiliga kirgan so‘zlarni o‘rganishda musulmon dunyosining turkiy xalqlarga ta’sirini chuqur tahlil qilgan. Unga ko‘ra, arab tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan so‘zlar faqatgina leksik birliklar emas, balki turkiy xalqlarning islom dinini qabul qilishi bilan bog‘liq yangi diniy-falsafiy tafakkur shakllanishining tilga aks etgan ko‘rinishidir. Shcherbak ta’kidlaydiki, bu arabcha so‘zlar orqali o‘zbek tiliga yangi ma’naviy va ilmiy tushunchalar kirib kelgan, ular orqali musulmon tafakkuri, axloqiy qadriyatlar va diniy e’tiqodlar shakllangan. Masalan, “*taqvo*”, “*sabr*”, “*ilm*”, “*adolat*” kabi so‘zlar o‘zbek tilining nafaqat lug‘at boyligini oshirgan, balki millatning dunyoqarashi va hayot falsafasida chuqur iz qoldirgan. Shuningdek, bu o‘zlashgan so‘zlar turkiy xalqlar madaniyati va diniy hayotida yangi tafakkur qatlamining yuzaga kelishiga sabab bo‘lganini, shuning uchun ham bu so‘zlarni tilshunoslikda faqat lingvistik element sifatida emas, balki diniy-falsafiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi tarixiy hodisa sifatida ko‘rish kerakligini ta’kidlaydi.

Ikkala olimning fikrlarida tilning tarixiy va madaniy kontekstda o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Federico Corriente ispan tilidagi arabizmlar orqali Ispaniyaning Andalusiya davrini eslaydi, tilni madaniy xotira va tarixiy meros sifatida qabul qiladi. A.A. Shcherbak esa o‘zbek tilidagi arabizmlar orqali islom dinining turkiy xalqlarga ta’siri va ular orasida yangi dunyoqarashning shakllanishini ko‘rsatadi. Shunday qilib,

arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar ikki til uchun ham til va madaniyatning o‘zaro uyg‘unligi, tarixiy aloqa va diniy-ma’naviy qadriyatlarning uzluksizligi ramzi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirgan o‘zlashma leksemalarkabi barcha tillarga u yoki bu tillardan kirib kelgan so‘zlar ko‘pmiqdorni tashkil etadi. Tilimizdagi so‘zlarning kelib chiqishi, semantikasini o‘rganishda, ularni tadqiq va tahlil etishda turlitillardagi etimologik lug‘atlarning o‘rni beqiyosdir. Modomiki, yaratilayotgan o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida so‘zning qaysi tildan kirib kelgani ko‘rsatilayotgan ekan, uning aniq manbalari va aynan qaysi tildan kirib kelganligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli deb hisoblaymiz. Turli leksemalar, metaforalar tadqiqida ularning dunyo xalqlarida harxil ma’no-mazmunga egaligi, nomlanishi bu millatlar tezaurusida nafaqat tafakkurning turlicha shakllanganligidan, balki ayrim so‘zlarning taraqqiyoti davomida yoki u tildan bu tilga ko‘chishi davomida birlamchi ma’nosidan uzoqlashib ikkilamchi mazmun kasb etilgan bilan ham izohlanadi. Umuman olganda, har bir til lug‘at boyligining kelib chiqishi —etimologiyasini chuqur o‘rganish bu birliklar shakllanishida etnoslar hududiy joylashuvi va o‘ziga xos milliy-madaniy rivojlanishining ongga, bilimga ta’siri hamda o‘zlashma so‘zlarning nima sababdan va qanday qabul qilinishi katta ahamiyatga molikligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Corriente, F. (1999). A Dictionary of Andalus Arabic. Leiden: Brill Academic Publishers.
2. Corriente, F. (2008). Diccionario de arabismos y voces afines en iberorromance. Madrid: Gredos.
3. Shcherbak, A.A. (1961). Arabskie zaimstvovaniya v sovremennom uzbekskom yazyke. Moskva: Nauka.

4. Sokolova, V.A. (1982). Lexical Borrowings in the Turkic Languages. Moskva: Nauka.
5. Hayitov, N. (1980). Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi. Toshkent: Fan.
6. Mirzaaxmedov, M. (2004). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
7. Qodirov, A. (2010). O‘zbek tilshunosligiga kirish. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Ávila, R. (2002). La influencia árabe en la lengua española. Madrid: Espasa-Calpe.
9. Al-Azami, M. M. (2003). The History of The Qur’anic Text: From Revelation to Compilation. Leicester: UK Islamic Academy.
10. Al-Khuli, M. A. (1990). Arabic Language: Its Role in Islamic Culture and Civilization. Riyadh: Umm Al-Qura University Press.
11. Rahmatullayev, B. (1975). Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi va frazeologiyasi. Toshkent: Fan.
12. Valixojayev, B. (2002). O‘zbek tilining tarixiy lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
13. Bozorov, O. (2016). “Arabcha o‘zlashmalar va ularning o‘zbek tilida shakllanishi”. Filologiya masalalari ilmiy jurnali, №3.
14. Haspelmath, M. & Tadmor, U. (Eds.). (2009). Loanwords in the World’s Languages: A Comparative Handbook. Berlin: De Gruyter Mouton.
15. Zohidov, A. (2010). “Til va tafakkur: Arab tilining islomiy dunyoqarash shakllanishidagi roli”. Sharq yulduzi, №4.
16. Tsvetkov, A. (1997). El componente árabe del léxico español moderno. Revista de Filología Española, Vol. LXXVII(2).

17. Mirzayev, M. (2018). Leksikologiyaga kirish. Toshkent: TDPU nashriyoti.

18. García Gómez, E. (2012). Al-Andalus y su legado lingüístico: El árabe en la lengua española. Granada: Editorial Universidad de Granada.

19. Baxronova D.K., Abduraxmatova N.O. Ispan va o'zbek tillariga o'zlashgan neologizmlarning tarixiy-semantik tadqiqi // Молодой ученый. — 2021. — №

52

(394)

20. Diccionario etimológico español. <http://etimologias.dechile.net/?cenit>

21. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. 5 TOM. —

Toshkent, 2006-2008 yillar.

22. <https://brill.com>

23. <https://www.rae.es>

24. <https://academictree.org/linguistics/>

25. <https://uzjournals.edu.uz/>

26. <https://til.gov.uz>